

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA OZIQ-OVQAT NOMLARI VA ULARNING BERILISHI

Ro'ziyev Qahramon Kuzimuratovich

WWW.roziyevqahramon96@gmail.com

Denov tadirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan oziq-ovqat nomlari, ularning qaysi tildan o'zlashganligi va ishlatilishi bilan bog'liq holatlar bayon etilgan. Alisher Navoiyning oziq-ovqat nomlarini ishlatilishi bo'yicha qarashlari o'rganilgan va tahlil qilingan. Bunda, albatta, ular tomonidan yaratilgan asarlarga murojaat qilingan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat nomlari, o'zlashgan taom nomlari, arabcha taom nomlari, fors-tojik tilidan o'zlashgan taom nomlari, hind tilidan o'zlashgan taom nomlari.

Alisher Navoiy qomusiy olim bo'lib, uning ijodida ijtimoiy hayotning barcha jabhalari uchun ma'lumotlar mavjud. Xususan, XIV-XV asrlarda oziq-ovqat nomlarining berilishi va ifodalanishida Alisher Navoiy asarlari o'rni alohida ahamiyatga egadir. Navoiy asarlari turkiy, forsiy, arabiy, xitoy va hind tillarga oid oziq-ovqat leksemalari keng qo'llanilgan bo'lib, bu leksemalar ushbu xalqlarning madaniyati bilan mushtarka holda tilimizga kirib kelgan. Albatta, ushbu leksemalarning katta qismini turkiy tilga xos so'zlarni tashkil etadi. Jumladan, Turkiy taom nomlar:

O'tmak – non (ANATIL¹, 3 j. 612-bet).

Chalpak – chalpak (ANATIL, 3 j. 119-bet).

Ko'moch / Kumoch – qo'rga ko'mib pishiriladigan non.

Kuloch - 1. Holvaga o'xshash bir tur shirinlik. 2. Sharbat, bodom va qaymoq solib qilingan kulcha. (nabotiy kuloch birikmasi uchraydi)

Umoch (yovg'on umoch). 6. Jug'rot (qatiq) (NAL. 237-bet).

Qatlama – qatlama (ANATIL, 4 j. 40-bet).

Quymog' – quymoq (ANATIL, 4 j. 75-bet).

Tutmoch – pishgan taom turi; xamir oshi, ugra osh. (ANATIL, 3 j. 162-bet).

Ushoq osh – ugra osh, tuppa (NAL², 628-bet).

Bulamog' – bulamoq, atala (ANATIL, 1 j. 331-bet).

Bug'ro – bug'doyni oqlab pishiriladigan va katta yig'inda tortiladigan ovqat (NAL, 139-bet).

Jijig'lig' osh – jijig'lig' - go'ja osh, taom nomi (ANATIL: 1 j. 540-bet).

Qovurmoch – qovurmoch, qovurilgan don, bo'g'doy (ANATIL, 4 j. 59-bet).

Tolg'on/tolqon – talqon (ANATIL, 3 j. 242-bet.)

Sut – sut

Suzma – suzma (qatiq) (ANATIL, 3 j. 120-bet).

Qaymog' – qaymoq (ANATIL, 4 j. 22-bet).

Qatiq – qatiq.

Panir – pishloq (NAL. 500-bet).

Qimiz – qimiz (ANATIL, 52-bet).

Qurut – qurut (ANATIL, 4 j. 540-bet).

Yog' – yog'.

Sarig' yog' – saryog'.

Qo'y uchasi – biqin go'shti.

¹ ANATIL – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati

² NAL – Navoiy asarlari lug'ati

<https://conferencea.org>

Uloba – ovqatlarning bir turi (ANATIL, 3 j. 285-bet).

Urkamoch – taom turlaridan bir (ANATIL, 3 j. 297-bet) 13

So‘kboch – so‘kosh (ANATIL, 3 j., 140-bet).

Et – go‘sh.

Qazi – qazi.

Shilon / Shulon – shulon, umumiy ovqat; podshoh ziyofati (NAL. 696-b.)

Navoiy asarlarida tub turkiy oziq-ovqat nomlari sifatida quyidagilar ishlatilgan:

bug‘ro – bug‘doyni oqlab pishiriladigan va katta yig‘inda tortiladigan ovqat” (NAL, 139-bet);
sut – sut;

panir – pishloq (NAL. 500-b.; 17-jild,170-b. HPM.);

yog‘ – (MAT, 17-jild, 410-bet).

qazi – otning to‘sh va peshnop go‘shiti; shunday go‘shidan otning yo‘g‘on ichagiga tiqib tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti. (O‘TIL, 5 j.)

shilon/shulon – shulon, umumiy ovqat; podshoh ziyofati (NAL. 696-b.)

Ushbu tub turkiy oziq-ovqat nomlari faqat o‘zakdan iborat bo‘lib, ularning tarkibi so‘z yasovchi qo‘shimcha bilan o‘zgartirilmagan.

Alisher Navoiy asarlari leksikasida taom nomlariga oid 5489 ta forsiy so‘z qo‘llangan³. Bundan shuni bilish mumkinki, Navoiy asarlarida turkiycha oziq-ovqat nomlaridan so‘ng forsiycha oziq-ovqat nomlari asosiy o‘rinni egallaydi. Ular quyidagilardir:

Non.

Osh.

Shir – sut.

Falla – yangi tuqqan hayvonning dastlabki suti, og‘iz (uviz)ga foydalaniladigan sut. (NAL, 631-bet).

Kabob – kabob. (ANATIL, 2 j. 86-bet).

Jigar kabob – jigar kabob.

Bat kabob – o‘rdak go‘shidan kabob (ANATIL, 2 j. 86-bet)

Pushti dunba – qo‘y dumbasi.

Shakar – shakar (MAT, 2 j., 662-bet).

Nabot – novvot.

Poludai dushob - asl, toza shinni, uzumdan qilingan toza shinni.

Maviz – mayiz.

Mavizob - mayiz suvi, sharbat (ANATIL, 188-bet).

Bodom- bodom mag‘zi.

Shirai bodom – bodom shirasi, qiyomi.

Sho‘rba – sho‘rva.

Harisa – halim, ko‘pchilikka go‘sh t va bug‘doydan pishirilgan ovqat (NAL, 767-bet).

“...ro‘za oyida har kecha o‘n besh botmon bug‘doy, besh botmon poludai dushobdin yo mavizobdin o‘ttuz tabaq, masoliq ulcha ehtiyoj bo‘lg‘ay. Ro‘za iydidida o‘tmak yuz botmon, halvo ellik botmon. Qurbon iydi avval kun uy bir son, qo‘y besh son qurbon qilib, madrasa va xonaqohning fuqaro va masokin va soyir suk qonig‘a ulashg‘aylar. Ikkinchi kuni yigirmi botmon et bila yigirmi botmon bug‘doyni halim qilib, ellik botmon o‘tmak bila qismat qilg‘aylar. Rabi ul-avval oyining o‘n ikkisidakim Rasul xatmidur, besh qo‘y masolihi bila osh pishurub, ellik botmon o‘tmak bila yigirmi botmon halvo tortqaylar. Rajab oyining o‘rtasi - istiftoh kuni yigirmi botmon halvo, ellik botmon o‘tmak; sha‘bon oyining o‘rtasidakim, barot bo‘lg‘ay, chalpak o‘ttuz botmon, halvo yigirmi botmon, qishning to‘rt oyidakim, qavs va jadi va dalv va hut bo‘lg‘ay, har kuni o‘tmak yuz adakim, yigirmi botmon uch tangalik et bilan murattab kilg‘aylar va agar et topilmasa jijig‘lig‘ osh pishurib, bergaylar. Yana sekiz oy har kun yigirmi botmon o‘tmak fuqarog‘a ulashg‘aylar”⁴.

³ Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: ФАН, 1983. –Б. 155. 20 18. Gazak - gazak, zakuska (NAL, 154-bet).

⁴ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 14-жилд, 272-бет.

<https://conferencea.org>

Arabcha taom nomlari

Halim – halim (ANATIL, 144-b.).

Qurs – kulcha. (ANATIL, 4 j. 80-b.)

Qursi qiyr – qora kulcha.

Qursi gazak – aylana, tugarak shakldagi gazak (ANATIL, 4 j, 80-b).

Asal, shahd.

Fatir; qursi fatir – patir kulcha (NAL. 637-b.

Halvo (issiq halvo) (MAT. 17-jild, 415-bet).

Taranjabin – yantoq shakari (ANATIL, 3 j., 77-bet).

Sikanjabin – sirka murabbo (ANATIL, 3 j.,77-bet).

Xitoycha o'zlashmalar. Ko'p ming yillik tarixga ega xalqimiz Buyuk ipak yo'li orqali Xitoyga borib savdo-sotiq qilgan⁵. Bundan tashqari, Buyuk ipak yo'li uzra buddizmning yoyilishi Sharq xalqlarining madaniy aloqalari, sharq tillarining o'zaro ta'sirini ham ta'minlab berdi. Buni qadimgi xitoy-turk madaniy munosabatlari, adabiy aloqalarida ham kuzatish mumkin. Ayon bo'ladiki, turklar bilan xitoyliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari qadim tarixga borib taqaladi. Bu hamkorliklar natijasi o'laroq, turkiy tillar so'z boyligiga xitoycha o'zlashmalar kirib kelgan. H. Dadaboevning ta'kidlashicha, "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati"da 240 ga yaqin xitoycha leksemalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati asosan madaniy sohaga taalluqlidir⁶. Izlanishlarimiz tekshirilayotgan manba tilida taom nomi bilan bog'liq bitta xitoycha so'z iste'molda bo'lganligini ko'rsatdi. Manti [xit. myan - xamir + ti – go'sht Go'sht va piyoz qiymasini xamirga tugib, qasqonda pishiriladigan ovqat.⁷ Ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiy manti so'zini turkiy tillar sirasida ko'rsatadi: "Va yana ba'zi yemaklardin qaymog' va qatlama va bulamog' va qurut va uloba va mantu va quymog' va urkamochni ham turkcha ayturlar.⁸ Bu hol, bizningcha, kelib chiqishi xitoycha bo'lgan bu so'z o'sha davr eski o'zbek tiliga turkiy xalqlardan bo'lgan uyg'urlarning tilidan o'zlashgani bilan bog'liq.

Navoiy asarlar tilida hind tilidan o'zlashgan oziq-ovqat nomlarini ham uchratish mumkin:

amna, umna (mango) – Hindistonda xush bo'y yaproqlardan tayorlanadigan maxsus ovqat;

tanbul – Hindistonda xushbo'y yaproqlardan tayorlanadigan maxsus ovqat⁹.

Navoiy asarlari lug'at tarkibida o'z qatlami tub (o'zak) so'zlarga, turkiy affikslar va so'zlarni qo'shish orqali fe'l yasash holatlari mavjud. Xususan,

Un qil – maydalamoq, talqonlamoq, un chiqarmoq: "Hojar andin yorg'ichoq bila un qilib, o'tmak pishirdi va Ibrohim alayhis-salomni uyg'ottikim, taom yegay".¹⁰ (ANATIL, 293. "Tarixi anbiyo va hukamo"dan).

Navoiy asarlar tilida taom nomlari umumiy yemak nomlari sifatida ishlatigan o'rnlarni ham ko'rishimiz mumkin.

"Saddi Iskandariy" dostonidagi parchada ham "osh", umuman, har qanday ovqat, taom ma'nosida qo'llangan:

*Qazon osturub, qildi qo'ylar qatil**Ki, molin ziyofatqa qilg'ay sabil.**Solib ju' mehmon dimog'ig'a dud,**Aning oshikim, tongla pishgay, ne sud¹¹.*

"Otamiz bizni pir Abulqosim qoshiga eltti. Chun savma'ag'a kirib, qoshig'a o'lturduq. Bir biyik cha erdi. Pir otamg'a ayttikim, bu Saidni egninga ko'tar. Ul toqda bir nondur. Tushursun! Otamiz bizni ko'tardi. Ul nonni tushurduk. Arfa o'tmagi erdi issiq. Shayx Abulqosim ul o'tmakni oldi va ko'zin yashartti va ikki sindurdi. Yarimin bizga berdiki, yegil va yarimin o'zi yedi. Otamiz dediki, bizga hyech bu nondin nasib bo'lmasmu?"

⁵ Хўжаев А. Буюк ипак йўли. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. –Б. 91-92.

⁶ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991. –С. 136.

⁷ O'TIL, 539.

⁸ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-jild, 17-bet.

⁹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 10-жилд, 479-бет.

¹⁰ ANATIL, 293. "Tarixi anbiyo va hukamo"dan

¹¹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 11-жилд, 439-бет.

Shayx dedi: Ey Abulxayr, o'ttiz yildurki, bu nonni bu toqda qo'yulubdur va bizga va'da qilibdurlarki, bu qurs ul kishi ilikidakim isigay, olame aning bila tirilgusidur va bu hadisning xatmi anga bo'lg'usidur"¹².

Yuqorida keltirilgan parchada non – o'tmak – qurs leksemalari o'zaro sinonim sifatida foydalanilgan. Qurs kulcha non sanalsa-da, bu o'rinda non tarzida talqin qilingan. Shu o'rinda bir narsani alohida qayd etish lozim. Navoiy asarlarida ham, bular uchun tuzilgan "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da ham nonning turkiycha nomi ikki xil: o'tmak va ekmak shakllarida uchraydi: Ekmak emas, borcha bukim to'rg'a sen, Arpau bug'doy sochibon o'rg'a sen¹³. "Mahbub ul qulubda" hatto itmak (itmakchi - novvoy) shaklini uchratamiz. Alisher Navoiy asarlarini nashrga tayyorlovchilar alloma asarlari uchun zamonaviy lug'at tuzuvchilar bir so'zni o'tmak, ekmak, va itmak shakllarida taqdim qilmoqdalar. Bizningcha, etmak shakli to'g'ri. Negaki, "Devonu lug'atit turk" asarida ham nonning turkiy atalishi "etmak" ekanligi ko'rsatilgan. Xususan, etmak – non etmak ushaldi – non burdalandi, ushaldi; ul o'zinga etmak uvundi – u o'ziga non ushatdi.¹⁴

Yoyildi chu shohona xonlar base,

Quyosh qursidek anda nonlar base.

"Saddi Iskandariy" dostonida bir katta bazm ta'rifida aytilgan ushbu misralarda "shohona dasturxonlar yozildi, unga qo'yosh kulchasidek nonlar qo'yildi" deyilmoqda.¹⁵ "Tandirda yopilgan kichkina dumaloq non, ya'ni kulcha sememasini ifodalash uchun eski turkiy tilda churak so'zi ishlatilgan. Bu so'z "Tarjuman" "At-tuhfa" va "Kelurnomada"da ham aksini topgan. Alisher Navoiy kulcha so'zi o'rniga arabcha qurs leksemasini qo'llagan:

Zaydg'a rotibaki bo'ldi daqiq,

Non ikki qurs edi, su bir ibriq¹⁶.

(Zaydning ikkita kulcha noni, bir ko'za suvi bor edi). Navoiyning nasriy asarlarida, xususan, "Nasoyim ul-muhabbat"da ham bu so'z ishlatilgan: "Ibriq qoshida ikki uluq qurs ko'rdum"¹⁷.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlari leksikasida ham oziq-ovqat nomlari faol ishlatilgan. Navoiy yashagan davridagi xalq madaniyatini, urf-odatlarini, boshqa xalqlar bilan aloqalarini belgilashda oziq-ovqat nomlarining ham munosib o'rni bor. Zeroki, har bir xalq o'zining tabiiy sharoiti, yashash tarzi va dunyoqarashidan kelib chiqib taom tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.
3. М. "Devonu lug'atit turk"
4. Хўжаев А. Буук ипак йўли. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси
5. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.
6. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: ФАН, 1983.

¹² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд, 203-бет.

¹³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7-жилд, 159-бет; АНАТИЛ, 3 ж., 562-бет.

¹⁴ "Devonu lug'atit turk" 210-бет

¹⁵ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 11-жилд, 403-бет

¹⁶ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 10-жилд, 199-бет.

¹⁷ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд, 411-бет.